



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMYIY VA TARBIYAVIY JARAYONLARNI REJALASHTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

**Haydarova Gulruh Muxiddin qizi**

*Toshkent shahar Chilonzor tumani 407-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rta  
guruh tarbiyachisi.*

*[haydarovagulruh95@gmail.com](mailto:haydarovagulruh95@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Pedagogik jarayonlarga yangiliklarni tatbiq etish va subyektlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;*

**Kalit so'z:** *Ta'lim, innovatsion yondashuv, faoliyat, subyekt, AKT, intellektual, sifat, yangilik,*

**Абстрактный:** *Применение инноваций в педагогическом процессе и учет особенностей инноваций в организации инновационной деятельности субъектов;*

**Ключевое слово:** *Образование, инновация, подход, деятельность, предмет, ИКТ, интеллектуальный, качество, инновация,*

**Abstract:** *Applying innovations to pedagogical processes and taking into account the specific features of innovations in the organization of innovative activities of subjects;*

**Key word:** *Education, innovation, approach, activity, subject, ICT, intellectual, quality, innovation*

Maktabgacha ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari darajasining o'sishi bilan belgilanadi.

Shunday ekan, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi tatbiq etilayotgan yangiliklar asosida ta'lim oluvchilarning olgan bilimlari, zamonaviy texnika va AKTni o'rganishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasi hamda tarbiyalanuvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek, pedagogik mahorati va kasbiy qobiliyatlarining rivojlanish darajalari o'sishini belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar vaziyatlarga ko'ra mazkur jarayonni ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, innovatsion metodlardan to'g'ri foydalanish, mazkur jarayon komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorlik xususiyatlarini, innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ilmiy-metodik ta'minotini yaxshilash, ta'lim menejmenti tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqamv subyektlari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilashni ko'rsatadi.



Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash va rivojlantirish uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zarurligini belgilaydi:

- Maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoniga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish; obyektlari hisoblangan ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyoji va innovatsiyalarga moyilligini aniqlash va motivlashtirish;

- pedagogik jarayonlarga yangiliklarni tatbiq etish va subyektlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

- axborotlar to'plash, ulami tahlil qilish va obyektiv baholash asosida o'zgamvchan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar muvaffaqiyatini ta'minlashda quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini inobatga olish zarur:

- maqsadiy samaradorlik - bu pedagogik jarayonlar subyektlari salohiyati, imkoniyatlari va mavjud imkoniyatlarning belgilangan maqsadlarga mos kelish darajasini ifodalovchi xususiyatlar;

- ijtimoiy-psixologik samaradorlik - bu pedagogik jarayonlardagi ta'limiy muhitning holati tavsifi bo'lib, subyektlar ehtiyojlarining rivojlanishi, ulaming yaratilgan shart-sharoitlardan va o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilish darajasi;

- ta'minot samaradorligi erishilayotgan natijalarning ilmiy-metodik ta'minotga bog'liqligi; texnologik samaradorlik - subyektlar asosiy funksiyalarining amalga oshirilish darajasi, shuningdek, subyektlar faolligini rivojlantirish samaradorligi. Mazkur shartlarni inobatga olgan holda uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, samaradorligini ta'minlash, belgilangan maqsadlarga erishish, innovatsion jarayonlarni tashkil etish va natijaviylikka erishishda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, obyektiv baholash va muntazam rag'batlantirib borish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Manbalarga ko'ra mamlakatimizda va xorijda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning ilmiy asoslari viyudga kelishiga ko'ra o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib - bu tizimli yondashuv texnologiyasining rivojlanish jarayonidir.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuv texnologiyasining barcha asoslari umum nazariy, umumboshqaruv, umumtexnologik, umum tizimlilik yondashuv texnologiyalari bo'yicha olib borilgan izlanishlarning natijalariga asoslanadi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi, olim, rahbar yoki pedagog har bir hodisa va voqeani, har bir obyektini hamda o'z faoliyatini tizim sifatida hisoblab, tizimli yondashuv texnologiyasi tamoyillarini qo'llashi zarur. Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagog xodimlar va rahbarlarning asosiy vazifasi jamoada zaruriy shart sharoitlari yaratish,



raqobatbardosh kichik mutaxassislar tayyorlash uchun pedagogik jarayonlarni yaxlit tizim sifatida rivojlantirish hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ulami tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilmiy va pedagogik tarkib tubdan o'zgardi, zamonaviy o'quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan ta'lim maskanlari sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatining pedagogik-psixologik asoslari, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ularning muqobil turlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari, boshqarishda jahon tajribasi va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish texnologiyalarini o'rganish va shu asosda chora-tadbirlarni belgilash, amaliyotga joriy qilish ishlari jadallashmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimining yangi avlod rahbarlarini shakllantirish masalasi ham kundalik dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalar sirasiga kiradi. Bunda rahbarning muvofiqlashtirish, rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va baholash vazifalari bilan uyg'unlikda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari to'g'risida e'tirof etilgan funktsiyalar bolalarning intellektual jihatdan voyaga yetishiga, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga va pedagog xodimlarning ilmiy-ma'naviy jihatdan o'sishiga, siyosiy va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keladi.